



IQTISODIYOTDA INNOVATSIYALARING TUTGAN O'RNI

Shukurova Farangiz Alisher qizi

Qarshi muhandislik - iqtisodiyot inisituti talabasi

Anotatsiya Innovatsion faoliyat, ayniqsa, bugungi keskin raqobat sharoitida iqtisodiy, texnologik, ilmiy va boshqatuzilmalarni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun zarur omil hisoblanadi. Bu turli sohalarda ishlab chiqarish, boshqaruv va xizmat ko'rsatish aspektlariga taalluqlidir. Bugungi kunda Iqtisodiyotning rivojlanishi uchun hamda taraqqiy topishida innovatsiyalarning nechog'lik muhim ahamiyatga ega ekanligi hamda innovations loyihalarini moliyalashtirishdagi imtiyozlar haqida malumotlar va takliflar berilgan

Kalit so'zlar: Innovatsion faoliyat, innovatsiya, modernizatsiya, infratuzilma, kredit, investitsiya, bank, foiz, resurs, kashfiyot, moliyalashtirish.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Iqtisodiyotda boshqaruv tizimi eskirgani, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali mexanizmlar o'z vaqtida joriy qilinmagani ham jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Shuningdek, texnologik qoloqlik, resurs va energiyani tejaydig'an texnologiyalar, muqobil energiya manbalarini tatbiq etishning sustligi ham iqtisodiy taraqqiyot yo'lida to'siq bo'limoqda” deya ta'kidlab o'tgan.

Shu o'rinda, milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda iqtisodiyotni izchil isloh etish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Boshqacha so'z bilan aytganda, innovatsiya faoliyatini rivojlantirmay turib, iqtisodiyot raqobatbardoshligiga erishib bo'lmaydi. Innovatsiya atamasining mazmunidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, qachonki har qanday kashfiyotlar, yangi voqealar, xizmatlar va usullar turlari tarqalishiga qabul qilinsa, o'shanda xalq ommasi tomonidan tan olinadi. Bunda yangilikning joriy etilishi yangilikni qo'llash jarayonini bildiradi va yangilikning tarqatilishiga qabul qilinishi vaqtidan boshlab yangi sifat – innovatsiyaga aylanadi.



Demak, innovatsiyani hayotga joriy qilishdan maqsad biror bir ijobjiy natijaga erishishdir. Bundan shuni anglash mumkinki, innovatsiya sohasi o'z-o'zidan investitsiya sohasi bilan chambarchas bog'liqdir. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida innovations-investitions faoliyatning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rishimiz mumkin:

— korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish;

— eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarining tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'llishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag'batlantirish uchun qo'shimcha omillar yaratish;

— ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan real sektor korxonalarining raqobatdoshligini oshirish;

— elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste'molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish choralarini amalga oshirish;

— ichki bozorda talabni rag'batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash

Albatta, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash, uning raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalarning o'rni beqiyos. Lekin mamlakatda innovatsiya faoliyatining tashkil etilishi va rivojlanishi uchun quyidagi shartlarning mavjud bo'llishi va bajarilishi talab etiladi:

— davlat innovatsiya siyosati – O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyyati organlari tomonidan mamlakatning innovations strategiyasi maqsadlari va ustuvor innovations dasturlar va loyihalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ishlab chiqilishi va belgilanishi;

— investitsiya salohiyati – davlat, tarmoq, korxona va tashkilotning turli ko'rinishdagi resurslar yig'indisi (moddiy, moliyaviy, intellektual, ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy va boshqalarini qamrab olgan holda);

— innovatsiya sohasi – innovatsiyalarni yaratish va tarqatishni o'z ichiga qamrab oluvchi innovatsiya mahsulot (ish, xizmat)larini ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarining faoliyat sohalari;

— innovatsiya infratuzilmasi – innovatsiya faoliyatining amalga oshirilishiga imkon beruvchi, ta'sir ko'rsatuvchi turli muassasalar;

— innovatsiya dasturi (korxona, tarmoq, hudud, davlat, mintaqa, davlatlararo) – innovatsiya loyihalari resurslari, ijrochilari va ularni



amalga oshirish muddatlari bo'yicha kelishilgan hamda yangi turdag'i mahsulotlarni o'zlashtirish va joylashtirish bo'yicha vazifalarning samarali hal etilishini ta'minlovchi innovatsion loyihalar va tadbirlar kompleksi.

Innovatsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishning bir necha turlari mavjud. Loyihaning o'zining, uning ishtirokchilarining kredit qobiliyati, ularning kreditni uchinchi shaxslar tomonidan to'lash kafolatlari hisobga olinmagandagi yashash qobiliyatiga asoslangan molyailashtirish asosiy bo'ladi. Loyihani amalga oshirish natijasida generatsiyalanadigan aul oqimlari qarzni to'lashning manbai bo'luvchi investitsiyalarni moliyalashtirishni uchinchi tur deb hisoblash mumkin. Moliyalashtirishning shunday turi uchinchi deb hisoblanadiki, bunda ham loyihani amalga oshirish natijasida generatsiyalanadigan naqd mablag'lar oqimlari va ham korxona aktivlari kreditni ta'minlanishi bo'lib xizmat qiladilar.

Korxonaning o'zining iqtisodiy va texnik yashash qobiliyati kreditni ta'minlashi loyihaviy molilashtirishning to'rtinchi turi bo'ladi


Hozirgi kunda investitsiyalarni innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun

yo'naltirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Xususan, bank tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirishga bir qancha imtiyozli shartlar qo'yilgan(1-chizma).

1-chizma. Bank tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish

INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH

Bank tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun kreditlar ajratish tartibi





Bilamizki, samarali innovatsiya loyihalarini amalga oshirish iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulot tannarxini pasaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, mahsulotlar sifatini oshirish va umuman iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon amaliyotida loyihaviy moliyalashtirish ostida ko'pincha moliyalashtirishni tashkil qilishning shunday turi nazarda tutiladiki, unda loyihani sotishdan olingan daromadlar qarz majburiyatlarini to'lashning yagona manbai bo'ladi. Shunga qaramay har xil mamlakatlarda "loyihaviy moliyalashtirish" atamasi har xil talqin qilinadi. Masalan, AQSHda uning ostida moliyalashtirishni shunday tashkil qilish tushuniladiki, unda investitsion loyihalarning katta qismi ta'sischining shaxsiy mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladi, loyihani sotishda daromad qarz majburiyatlarini to'lashning yagona manbalaridan bo'ladi.

Evropada bu atama loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni taqdim etishning har xil variantlari va yo'llariga nisbatan qo'llaniladi. Keyingi vaqtida "loyihaviy moliyalashtirish" atamasi ham banklar tomonidan taqdim etiladigan kreditlarga va ham vositali byudjetli qo'llab-quvvatlashga, har xil davlat tashkilotlari, investitsion fondlar, sug'urta kompaniyalari va boshqa manfaatdor sarmoyadorlarning qo'llab-quvvatlashiga asoslangan moliyaviy va tijorat operatsiyalari tizimiga nisbatan qo'llaniladi.

O'zbekiston iqtisodiy holatining innovatsiyalar bilan o'zaro bog'liqligini quyidagi asosiy jihatlarda ko'rish mumkin, ya'ni innovatsiya faoliyatining milliy iqtisodiyotga ta'sirini tadqiq etish nuqtai nazaridan davlatning moddiy asosi sifatida butunligicha ko'rish; innovatsiyalarning alohida korxona faoliyatiga ta'sirini tahlil qilishda alohida bozor subyekti sifatida qarash; innovatsiya siyosatini amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini o'rganish.

O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsiyalar, avvalo uning barqaror o'sishi uchun zarurdir. Yangi texnologiyalarga investitsiyalar raqobatbardosh, yuqori talab bilan iste'mol etiladigan tovarlar ishlab chiqarishga yordam beradi.

Mamlakat iqtisodiyoti va iqtisodiyot subyektlarining tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir ko'rsatishning asosiy vositalaridan biri – davlat iqtisodiy siyosatining bo'g'inlaridan hisoblanuvchi innovatsiya siyosatidir. Davlat innovatsiya siyosati yordamida bevosita ishlab chiqarish hajmi sur'atlari



oshishiga, fan-texnika taraqqiyoti tezlashishiga, ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilishi o'zgarishi, ijtimoiy muammolarni hal qilishga ta'sir o'tkaza oladi.

Xulosa va Takliflar: O'zbekiston Respublikasida innovatsion iqtisodiyotni shakillantirish va yanada rivojlantirish maqsadida bir qancha asosiy ishlar va chora-tadbirlar majmuini qisqacha yoritib o'tsak:

- rivojlangan mamlakatlardagi biz uchun kerak bo'lgan barcha texnologik bilim va yangiliklarni o'rganish, va respublika iqtisodiyoti tarmoqlariga bosqichma-bosqich milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda tatbiq qilish;
- asosiy ahamiyatga ega bo'lgan ichki innovatsion loyihalarga investorlarni hamda xorijiy kapitalni jalb qilish;
- texnologik innovatsiyalarga bag'ishlangan bilimlar bazasini tashkil qilish va unda internet portal orqali barcha fuqarolar foydalana olishlariga erishish;
- innovatsiyani rivojlantirish, bu sohadagi yutuqlarni yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotga aylantirishda intellektual mulkning ishonchli himoyasini ta'minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojatnomasi. <http://aza.uz>.
2. Вернакова Ю.В. Симоненко Б.С. Управление инновациями: теория и практика. –М.: Высшее экономическое образование, 2008.
3. Borut Likar, co-editors Peter Fatur, Urshka Mrgole; translation Arslingue K.Jontar, TEFL, TBE. — 1st. ed. — El. knjiga. — Ljubljana INNOVATION management [Elektronskivir] Korona plus — Institute for Innovation and Technology, 2013.
4. Гончаренко Л.П., Олейников Е.А., Березин В.В. "Инновационный менеджмент" учебное пособие/М.: КНОРУС, 2005, — 544 с.
5. Зинов В.Г. «Менеджмент инноваций: кадровое обеспечение» Учебник — М.:Дело 2005 – 496 с.
6. «Инновационная экономика» А.А.Динкин и другие. – М.: Наука , 2001.
7. Мухамедьяров А.М. "Инновационный менеджмент" учебное пособие – М.:Инфра – М, 2006. — 127 с.
8. Оголова Л.Н. Инновационный менеджмент: Учебное пособие / Под ред. д.э.н., проф. Л.Н. Оголовой. — М.: ИНФРА-М, 2006, — 238 с.
9. Yo`ldoshev N.Q. va boshqalar. «Innovatsion menejment». Darslik. TDIU. 2011y. — 312 b



10. www.economics.ru
11. <https://mininnovation.uz/>
12. <https://mineconomy.uz/>
13. [http://uza.uz.](http://uza.uz)
14. <http://www.statmirror.uz/>

